
Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlari muvofiqlashtiruvchi Kengashining navbatdagi yig'ilishida muhim vazifalar muhokama qilindi

Rishton tumani hokimligida jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlari muvofiqlashtiruvchi Kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda tuman hokimining tegishli o'rinbosarlari, tuman prokuraturasi, ichki ishlar bo'limi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbariyati, mahalla raislari, hudud profilaktika inspektorlari xamda kun tartibidagi masalalarga aloqador tashkilot va muassasalar rahbarlari ishtirok etdi.

Yig'ilishda asosan, joriy yilning o'tgan olti oyi davomida tumanda umumiy jinoyatchilik holati, dinamikasi, jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar masalalari muhokama qilindi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan tuman prokurori va mutasaddilarning axborotlari tinglandi.

Hisobot davrida tumanda sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklar, ushbu xavfli illatlarni keltirib chiqargan sabablari hududlar va mahallalar kesimida batafsil tahlil qilindi.

Jinoyatchilikni jilovlash yuzasidan belgilangan muhim vazifalarni tegishli mas'ul tashkilotlarning mustahkam hamkorligida og'ishmay ado etish yuzasidan qo'shimcha zaruriy chora-tadbirlar belgilab olindi.

2022-07-28 09:33:31